## MA’RIFAT FIDOIYLARI

**Vazirabonu Rahmatova Shermat qizi**
Buxoro davlat universiteti
Tarix va Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo‘nalishi talabasi
e-mail:vazirabonurahmatova@gmail.com

**Anotatsiya:** XIX asr oxiri XXasr boshlarida Rossiya mustamlakasi bo‘lgan millatlar orasida boshlangan madaniy va ma’rifiy tiklanish jadidchilik harakati nomi ostida maydonga chiqdi. Turkiston jadidlari fuqarolarni qoloqlik va xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, millatga ma’rifat urug‘ini yoyish va muxtoriyatga erishish g‘oyasini olg‘a surdilar. Ushbu maqolada yuqorida qayd etilgan g‘oyalar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, yurtimiz istiqboli, jadidlar faoliyati, siyosiy qatag‘onlar.

**Ilm qadrini ma`rifatli, johil jabrini**
**undan aziyat chekkan inson biladi.**

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o`z vaqtida anglab yetgan haqiqatlardan biri: jadid ma`rifatparvar allomalarining yurt va Vatan ozodligi yo`lida o`z jonlarini fido etganliklarini e`tirof etish, ularni garchi oramizda bo`lmasa-da, ma`naviy mulkimizga aylanib ulgurgan adabiy merosini qayta tiklash borasidagi ishlarni amalga oshirishga qaratilganligidir. Prezidentimiz birinchi oktyabr “Ustoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan so`zlagan otashin nutqida shunday degan edi: “Ko‘pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o‘ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi mumkin ham emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqodlari deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar.” Prezidentimiz ham ushbu fikrlarni bir jadid sifatida jonkuyarlik va fidoyilik bilan so`zlar ekan, yosh avlodni ularga munosib bo`lib yetishlarini ta`kidladi.

Taassufki, yangicha ma`rifatparvarlik g`oyalarini targ`ib etgan jadid allomalarimiz o‘z oldlariga qo‘ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo‘l bermagan. Ular o‘z davridagi johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo‘lib, avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati tomonidan ayovsiz quvg‘in va qatag‘on qilindilar. Shu tariqa milliy uyg‘onish va taraqqiyot uchun olib borilgan harakatlar to`xtab qolgan edi. Ollohga behisob shukronalar bo`lsinki, ilk istiqlol yillaridan Birinchi Prezidentimiz tashabbuslari bilan ular xotirasi qayta tiklandi. Ular hayoti, asarlari yetuk mutaxassis va fidoyi olimlar N.Karimov, B.Qosimov, Sh.Rizayevlar tomonidan kitobxonlar e`tiboriga havola qilindi.

Bugungi kunga kelib, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan bu jarayon yanada jadal tus oldi. Natijada Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, obod va farovon hayotini

ta’minlash yo‘lida fidokorlik ko‘rsatib, milliy ta’lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo‘shgan Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandilar. Mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini, xususan, jadidlar merosini yanada chuqur o‘rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha qaror loyihalari ishlab chiqildi.

Buning birgina misoli tariqasida, Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sadullayev tomonidan ma’rifatparvar jadid allomalarimizning ilmiy merosini ommalashtirish maqsadida “Jadidlar” rukni ostida kitoblar to‘plami nashr ettirilgani, mazkur to‘plamda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Is’hoqxon to‘ra Ibrat, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, G‘ulom Zafariy kabi ma’rifatparvar jadidlarning hayoti va ijodi, asarlarining qisqacha tahlili, e’tirofi, hikmatli so‘zlari o‘rin olganligini ko`rishimiz mumkin. Ushbu kitoblarni tayyorlanishida jadidlar faoliyati bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar hamda professor-o‘qituvchilarning jalb qilinganligi juda katta fidoyilik belgisidir. Eng quvonarli jihati, ushbu to‘plam vazirlik-idoralarga, tashkilotlarga, barcha ta’lim muassasalariga bepul tarqatildi. Biz Oliy ta`lim professor-o`qituvchilariga ham bayram arafasida berilgani quvonchimiz va mas`uliyatimizni yanada oshirdi. “Jadidlar” kitobi to‘plamini aholi, jumladan, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish orqali ma’rifatparvar jadid bobolarimiz haqida har bir yoshning xabardorligini oshirish asosiy maqsad qilingan. Oxirgi xabarlarga ko`ra, ko‘pchilik kitobxonlarning talab va takliflaridan kelib chiqib, “Jadidlar” to‘plamining audio varianti ham e’tiborimizga havola etiladi.

Bu jarayonlarni boshida turgan hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni, amalga oshirishda bosh-qosh bo`lgan fidoyilarni men bugungi kun jadidlari deb hisoblayman va o`zimning cheksiz minnatdorligimni bildiraman. O`ylaymanki, bu jarayon to`xtovsiz davom etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytadigan bi’lsak jadidlar mamlakatni ozodlikka chiqarish yo‘lida avvalambor millatning manaviyati, ongini yuksaltirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydilar. Buning uchun ma’rifat fidoiylarining o‘zlari yangi usul maktablariga asos soldilar va ushbu maktablar o‘z maqsadlariga erishish uchun asos bo‘lib xizmat qildi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Muhammadjonov. Turmush urinishlari

2. Ichilov. DATING OF THE ZAMANBABA CULTURE ASEDON ARCHEOLOGICAL SOURCES

3. VIKEPEDIYA

4. Туркестанский ведомости

5. Chig‘atoy dili

WORDLY KNOWLEDGE